

Yosh chegarachilar maktab o'quvchilari bilan uchrashishdi



Ana shunday uchrashuvlar bugun Termiz shahridagi 13-sonli hamda 26-sonli umumta'lim maktablarida DXX Chegara qo'shinlari "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyi o'quvchilari bilan o'tkazildi.

Harbiy libosi o'ziga yarashib turgan yosh o'g'lonlar o'zlari 10-sinfgacha tahsil olgan maktabda o'quvchilarga DXX Chegara qo'shinlari "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyi, unda yaratilgan sharoitlar, o'qishga qabul qilinish shartlari haqida atroflicha ma'lumotlar berishdi.

Uchrashuvlar yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, harbiylikka qiziqtirish, ularga yurt oldidagi farzandlik burchini anglatishi bilan ahamiyatli bo'ldi.